Foyda solig'i tushumi va uning O'zbekiston soliq-budjet tizimidagi ahamiyati.....	1080
Shirinov Sabir Erkinovich	
O'zbekistonda davlat korxonalari aksiyalarini moliya bozorlarida sotishni jadallashtirish yo'nalishlari.....	1084
Anvar Eshmatov	
Baliqchilik xo'jaliklarida xodimlar bilan hisob-kitoblar hisobining tashkiliy va uslubiy jihatlarini.....	1088
Ametova Nasiba Danilovna	
Tijorat banklari tomonidan eksportyor korxonalarining kreditlash amaliyotini takomillashtirish.....	1092
Bayjanova Gozzal Sarsengaliyevna	
Digital Transformation of Tax Systems.....	1096
Boburjon Turanboyev Qodirjon o'g'li, Musabekov Sherali Nazarali o'g'li	
Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish yo'nalishlari.....	1101
Raxmonova Aziza Tolibovna	
Transitioning to a Green Economy and Implementing Sustainable Technological Changes in Uzbekistan.....	1106
Umarov Elshod G'ulom o'g'li	
Texnik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalari daromadlari tarkibi va ularning o'ziga xos jihatlari.....	1112
Yuldashov Elmurod Abdujalil o'g'li	
Совершенствование системы профессионального управления жилищно-коммунальным хозяйством Узбекистана.....	1116
Икромовна Ханифа Одилловна	
Sanoat korxonalarini kreditlash amaliyotining zamonaviy holati.....	1121
Kamalova Jamila	
O'zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalarining huquqiy maqomi va ularni isloh qilishning istiqbollari.....	1125
Qahhorov Azizjon Ahror o'g'li	
Nodavlat notijorat tashkilotlari mablag'lari va ulardan foydalanish to'g'risidagi bajarilishlarga oid hisobotni tuzish va taqdim etish tartibi.....	1131
Ne'matov Oybek Ismatullayevich	
Предприятие автомобильной промышленности как объект реализации концепции устойчивого развития.....	1136
Туйчиев Комилжон Лазизович	
Tijorat banklari aktivlari diversifikatsiyasining nazariy ahamiyati.....	1143
O'ktamova Nozima Narzulla qizi	
Tijorat banklarida yangi masofaviy bank xizmat turlarini rivojlantirish.....	1146
Umarov Abdulquddus Abdilxatovich	
Некоторые вопросы эконометрической оценки CES – функций и их практическое применение в экономических задачах.....	1151
Шадиева Гулнора Мардиевна, Усманов Фарзод Шохрухович	
Использование искусственного интеллекта в спортивной индустрии.....	1158
Усманова Дилфузахон Иброхимовна	
The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities.....	1163
Po'latov Sherzodbek Oybek o'g'li, Farmonov Ilhomjon Iqboljon o'g'li	



Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishni takomillashtirish (Andijon viloyati misolida)	1168
Xolmatov Sanjarbek Xojimatovich	
O'zbekiston temir yo'l transport tizimi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari	1174
Qilichev Umid Ibadullayevich	
Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi sharoitida raqamli banklar resurslarini oshirish choralari	1181
Xamraqulova Gulnozaxon Faxriddin qizi	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari	1185
Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
O'zbekistonda Islom banklari faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	1191
Vasiyev Alisher Samiyevich, Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Islom iqtisodiyotining mohiyati	1197
Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Budjet mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi	1201
G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li	
Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari	1207
Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li	
Перспективное развитие промышленной кооперации между странами	1212
Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы	
Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar	1218
Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna	
Ta'lim sifatini ta'minlash oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili	1222
Nematov Inatillo Ubaydullayevich	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish	1228
Umurzakova Adiba Ochilovna	
Tijorat banklari resurslari shakllanishining manbalari va yo'llari	1232
Raxmanov Ilxom Xurramovich	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане	1238
Пулатова Сурайё Юлдашевна	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике	1242
Рафиева Зарина Хусановна	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries	1246
Akhmedov Doniyorbek	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari	1250
Azizova Manzura Ibragimovna	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production	1254
Dilfuza Baxramovna Safarova	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari	1261
Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rne va ularni rivojlantirish yo'nalishlari	1266
Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiroki va ahamiyati	1272
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari	1277
Ibragimov Gafurjan Axmetovich	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi	1282
Ibragimov Mansur Axmedovich	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida)	1286
Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами	1294
Мансурова Севара Мансуровна	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash	1297
Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna	



KICHIK BIZNES KORXONALARIGA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI

Mamanazarova N. J.

QarMII Innovatsion iqtisodiyot kafedrası tayanch doktoranti

Jamilova N. X.

IPU talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolaga Qashqadaryo viloyatida kichik biznes korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish maqsadida investitsiyalarni jalb qilishda yangi sohalarining o'ri va ahamiyatini oshirish yo'llari taklif qilingan.

Kalit so'zlar: Kichik biznes, investitsiya, kichik biznes rivojidagi muammolar, xususiy tadbirkorlik, iqtisodiy samaradorlik, kreyativ g'oyalar taklifi, xorijiy investitsiyalar.

Abstract: This article proposes innovative ways to attract investment in order to increase the economic efficiency of small businesses in the Kashkadarya region.

Key words: Small business, investment, problems of small business development, private entrepreneurship, economic efficiency, proposal of creative ideas, foreign investment.

Аннотация: В данной статье предложены инновационные пути привлечения инвестиций в целях повышения экономической эффективности предприятий малого бизнеса Кашкадарьинской области.

Ключевые слова: Малый бизнес, инвестиции, проблемы развития малого бизнеса, частное предпринимательство, экономическая эффективность, предложение креативных идей, иностранные инвестиции.

KIRISH

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Faqat katta korxonalar qilish, aholi bandligini va daromadini oshirish, budjet tushumlarini ko'rsatish masalarini to'liq hal eta olmaymiz. Turmush darajasini oshirishning eng muhim yo'li tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirishdir. 1. Darhaqiqat kichik biznes iqtisodiyotning shunday sektoridirki, u investitsiya muhitida yuz berayotgan deyarli barcha o'zgarishlarga moslashadi. Kichik biznes nuqtayi nazaridan investitsiya muhitining jozibadorlik darajasini aniqlash uchun butun mamlakat va mintaqalardagi iqtisodiy vaziyatni ko'rsatuvchi omillar, iqtisodiyotning bu tarmog'iga investitsiyalar kiritish qonunlar va infratuzilmalar bilan qanchalik ta'minlanganligi, mintaqada bozor infratuzilmasining rivojlanish darajasi, malakali ishchi kuchining mavjudligi, shuningdek, mana shu va boshqa omillar bilan bog'liq xatarlar bor yoki yo'qligi g'oyat muhimdir. O'zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlik uchun tarmoqlar bo'yicha investitsiya muhiti alohida qiziqish tug'diradi. Kichik biznes uchun o'ziga xos ba'zi ko'rsatkichlar sifatida quyidagilarni sanab o'tish mumkin:

- kichik tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimi va infratuzilmasini rivojlantirishning mintaqaviy ko'rsatkichi;
- egallab turgan bozor sektorlari bo'yicha (masalan, xizmatlar yoki savdo sohasida) raqobatlashuvchi yirik firmalarning mavjudligi va rivojlanish darajasi;
- mahalliy bank tizimining rivojlanish darajasi va boshqa omillar.
- Jalb etilgan chet el investitsiyalarini mamlakatimizning barcha mintaqalariga yo'naltirish, shu bilan bir qatorda, ushbu mablag'larni, eng avvalo, tarkibiy qayta o'zgartirishlarni chuqurlashtirish va iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, mavjud quvvatlarni modernizatsiya qilish va texnologik yangilashni jadallashtirish va sanoat kooperatsiyasi asosida ishlab chiqarishni mahalliyashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish loyi-

1 <https://kun.uz/uz/news/2019/07/24/prezident-kichik-biznes-rivojiga-tosiq-bolayotgan-muammolarga-toxtaldi>



halarini moliyalashtirish uchun yo'naltirishga alohida e'tibor qaratish;

- xorijiy kredit liniyalari hisobidan ajratilayotgan mablag'larni oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga, jumladan, go'sht-sut va meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlashga qaratilgan loyihalarga yo'naltirish, tadbirkorlarning ushbu mablag'larni o'zlashtirishiga har tomonlama ko'maklashish;
- xorijiy kredit liniyalarining afzalliklarini inobatga olgan holda hududlardagi mavjud bo'sh turgan va faoliyatsiz binolar negizida yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etish va bunda asosiy e'tiborni jahon bozorlarida va ichki bozorlarda talab mavjud bo'lgan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, mahsulot ishlab chiqarishda material va energiya sarfini kamaytirish bilan bog'liq loyihalarni moliyalashtirishga alohida e'tibor qaratish;
- mehnat resurslari ortiqcha hamda uzoq va borish qiyin bo'lgan tuman va shaharda xorijiy kredit liniyalari hisobidan yuqori texnologiyali va innovatsiya loyihalarini amalga oshirish, mazkur hududlarda aholi bandligini ta'minlash va turmush farovonligini yuksaltirish yuzasidan tegishli choralar ko'rish².

Ma'lumotlarga ko'ra, tadbirkorlikni jadal rivojlantirish maqsadida, viloyatda Xitoy tajribasiga asosan 45 ta kichik sanoat zonasi va Qarshi aeroportiga yondosh 120 gektar maydonda erkin iqtisodiy zona faoliyati yo'lga qo'yilgan. Ushbu hududlarda tadbirkorlik faoliyati uchun davlat tomonidan barcha muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi yaratilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

O'rganilayotgan mavzu doirasida MDH davlatlari olimlaridan S. S. G'ulomov ^[1], M. P. Boltabayev, M. S. Qosimova, B. K. G'oyibnazarov Sh. J. Ergashxodjayeva, A. N. Samadov, Sh. I. Otajonov ^[2], U. P. Umurzakov, A. J. Toshboyev ^[3] va boshqalar tomonidan kichik biznes va tadbirkorlikni rivoji yo'nalishlari va innivetsiyalarni jalb qilish kabi bir qator masalalar ko'rib chiqilgan. Kichik biznes va tadbirkorlik sohasi, uning rivoji va yo'nalishlarini o'rgangan xorijiy olimlar: A. Marshall, Y. Shumpeter, V. Valeslar ^[4] tadbirkorlikning ilmiy asoschilari hisoblanadi. Mahalliy olimlarimizdan: Bayxonov B. T. ^[5] tarmoqlar faoliyatini ishlab chiqilgan ekonometrik modellar orqali tahlil qilib, prognozlash asosida investitsiyalar samaradorligini baholashda, zamonaviy uslubiy yondashuvni qo'llash mumkinligini ta'kidlaydi. H. P. Abulqosimov, A. A. Qulmatovlar ^[6] mamlakatimizda kichik biznes sohasida oilaviy tadbirkorlikning o'rni va uni rivojlantirish yo'llarini o'rgangan. B. K. G'oyibnazarov, H. O. Rahmonov, Sh. I. Otajonov, D. S. Almatovalar ^[7] KBXT faoliyatini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari, sohada mavjud bo'lgan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari, kichik biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash mexanizmlari o'rganilgan.

TATQIQOT METODOLOGIYASI

Kichik biznes korxonalarini hozirgi kundagi o'rnini oshirish, yangi sohalarga jalb qilish hamda istiqbolda bu sohalarning samaradorligini oshirishga qaratilgan statistik kuzatuv va ko'rsatkichlardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJADAR

Qashqadaryo viloyati respublikada hududining kattaligi bo'yicha 3-o'rin, aholisi soni bo'yicha 4-o'rinda turadi³. Viloyat hududida yerosti va yerusti tabiiy qazilma boyliklari, qolaversa, qishloq xo'jaligi mahsulotlari bo'yicha ulkan xom ashyo bazasi hamda iste'mol bozori mavjud. Viloyatda yetishtirilayotgan qishloq xo'jalik mahsulotlarining sanoat usulida qayta ishlash darajasi past. Xususan, yetishtirilgan mevaning 12 foizi, sabzavotning 2 foizi, uzumning 4,8 foizi, go'shtning 1,1 foizi, sutning 2,8 foizi qayta ishlanayotganligi, bu mahsulotlarga viloyatning o'zida katta iste'mol bozori mavjudligini ko'rsatadi. Viloyatda keyingi 5 yilda yetishtiriladigan qariyb 10 mln tonna chorvachilik mahsulotlarini yoki qariyb 65 mln tonna dehqonchilik mahsulotlarni qayta ishlash bo'yicha yangi investitsiya loyihalarini joriy etish zarurati mavjud. Vaholanki, juda katta miqdorda qayta ishlangan qishloq xo'jalik mahsulotlari viloyatga chetdan yoki boshqa viloyatlardan olib kelinadi. Bundan tashqari, viloyat hududida 23 turdagi 147 ta foydali qazilmalar mavjud. Masalan, kafel uchun zarur bo'lgan xom ashyoning 90 foizi, santexnika (unitaz, rakovina va boshqalar) mahsulotlari uchun 98 foiz, steklokristallit uchun 72 foiz, qurilish oynasi uchun 86 foiz hamda chinni idishlar uchun 100 foiz komponentlar viloyatdagi konlarda mavjud. Ushbu xom ashyo zaxiralarini qo'shma korxonalar tashkil qilib, shu yerning o'zida viloyatning ichki bozori va tashqi bozorlar uchun qayta ishlansa va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarilsa yuqori natijalarga erishish mumkin. Eng asosiysi bu mahsulotlarga talab yuqori, xususan, keyingi 5 yilda 24 ming xonadonli, 2022-yilning o'zida 3,5 ming xonadonli ko'p qavatli uylar qurilishi rejalashtirilganligi qurilish materiallariga talabning yuqoriligini ko'rsatadi⁴. Qolaversa bugungi kundagi dolzarb muammo ya'ni aholi bandligini ta'minlashga erishish mumkin.

2 <http://lib.jizpi.uz/mod/resource/view.php?id=13621&redirect=1>

3 Respublika statistika ma'lumotlaridan foydalanildi


4 https://uza.uz/oz/posts/tashrifdan-tashrifgacha-qashqadaryo-viloyati-iqtisodiyoti-yuksalmoqda_457213



1-jadval: Qashqadaryo viloyatida kichik biznes korxonalarining soni (tumanlar kesimida)

№	Hududlar	Qashqadaryo viloyatida kichik biznes korxonalarining soni		2023-yil 2022-yilga nisbatan farqi +/-
		2022-yil	2023-yil	
1	Qarshi shahar	7441	8252	811
2	Shahrisabz	2099	2377	278
3	G'uzor	1904	2351	447
4	Dehqonobod	1733	2090	357
5	Qamashi	2566	3017	451
6	Qarshi tum.	2719	3151	432
7	Koson	2908	3463	555
8	Kitob	2697	3253	556
9	Mirishkor	1447	1821	374
10	Muborak	1300	1422	122
11	Nishon	1653	2001	348
12	Kasbi	1707	2022	315
13	Ko'kdala	-	1336	1336
14	Chiroqchi	3142	2478	-664
15	Shahrisabz tum	1862	2146	284
16	Yakkabog'	2580	3143	563
Jami		37758	44323	6565

Yuqoridagi jadvaldan ko'rishimiz mumkinki, 2022-yilning yakunida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda – 64,1%ni, xizmatlar sohasi – 56,9%, sanoat – 54,9%ni tashkil qilgan. Shu bilan birga, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qurilish sohasida – 39,8%, sanoat – 37,7%ni tashkil etgan. Xususan, kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 4 973 mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatilgan bo'lib, umumiy ko'rsatilgan xizmatlar hajmining 68,1%ini tashkil qilgan va o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 114,8%ni tashkil qilgan. Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Qarshi shahri (935,1mlrd.so'm), Kitob (422,2mlrd.so'm), Koson (413,4mlrd.so'm), Qamashi (372,5mlrd.so'm), Qarshi (347 mlrd.so'm) va Yakkabog' (300,9 mlrd so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Joriy yilning birinchi yarm yilligida tumanlar kesimida yangi tashkil qilingan korxonalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Qarshi – 13,3%, Koson – 7,6%, Chiroqchi – 7,6%, Dehqonobod – 6,9%, Yakkabog' – 6,8%, Qarshi – 6,6% tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Xususan, viloyatda har 1000 nafar aholiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining hududlar bo'yicha ko'rsatkichini olib qaraydigan bo'lsak, eng yuqori ko'rsatkichlar Qarshi shahri – 22,7 birlik, Shahrisabz shahri – 12,9, Muborak – 12,5, Mirishkor – 11,2, Dehqonobod – 10,2 birlik tumanlarida kuzatilgan.



1-rasm: Viloyatda faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tahlil



qilingan (foizda %)

2023-yilning yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'atlari Kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari tomonidan chakana tovar aylanmasi hajmida Qarshi (1820,3 mlrd. so'm), Shahrisabz (764,1 mlrd. so'm) shaharlari va Koson (561,8 mlrd. so'm) va Qamashi (534,4 mlrd. so'm) tumanlari yetakchilik qilmoqda. 2023-yilning yanvar-iyun oylarida viloyat yalpi hududiy mahsuloti hajmida kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlarining ulushi 64,7 foizni tashkil qilib, 2022-yilning mos davrida 66,1 % foizni tashkil qildi. Sanoat ishlab chiqarish sohasining yuqori ulushi Ko'kdala tumani (jami ishlab chiqarish hajmiga nisbatan ulushi (100,0 %), Shahrisabz shahri (86,4 %), Chiroqchi (80,5 %) tumanlariga va eng past ulushi Nishon (2,3 %) tumaniga to'g'ri keladi. Xizmatlar sohasida tuman bo'yicha jami xizmat ko'rsatish hajmida kichik tadbirkorlikning yuqori ulushlari Mirishkor (jami xizmatlar hajmiga nisbatan ulushi (91,0%), Koson (85,5 %), Qamashi (84,9 %), Kitob (84,6 %), Dehqonobod (82,1 %), Kasbi (80,8 %), Qarshi (80,2 %), G'uzor (75,2 %), Nishon (74,6 %) tumanlariga to'g'ri keldi⁵.

2-jadval: Kichik tadbirkorlik subyektlarida so'ngi 3 yilda eng ko'p yangidan tashkil etilayotgan soha va yo'nalishlar

Tarmoq nomi	Korxonalar soni, birlik	Tarmoqdan ulushi%da
Qishloq, o'rmon vabaliqchilik xo'jaligi		
Aralash qishloq xo'jaligi	781	17,2
Danakli va po'choqli urug'i bo'lgan mevalar yetishtirish	704	15,5
Qorako'l zotlilardan tashqari qo'ylarni ko'paytirish	531	11,7
Uzum etishtirish	268	5,9
Qorako'l zotli qo'ylarni ko'paytirish	253	5,6
Sanoat		
Non, xamirdan yangi tayyorlangan qandolat mahsulotlari, tort va pirojnoye ishlab chiqarish	396	8,7
Boshqa to'qilgan va trikotaj mahsulotlar ishlab chiqarish	200	4,4
Boshqa ustki kiyimlar ishlab chiqarish	192	4,2
Metall eshik va derazalar ishlab chiqarish	147	3,2
Betondan qurilish uchun buyumlar ishlab chiqarish	126	2,8

Kichik va o'rta biznes subyektlarining samarali faoliyat ko'rsatishi uchun ularning faoliyatini tartibga soluvchi, kichik biznesning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oladigan qonunchilik va me'yoriy-huquqiy bazani yanada rivojlantirish zarur. Tadbirkorlik faoliyatini to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etuvchi qonunlar tizimi orqali qonunchilik bazasi va huquqiy tartibga solishning takomillashtirilishi tadbirkorlik faoliyati erkinligini ta'minlash, kichik biznes subyektlari faoliyatiga ma'muriy aralashuvni bartaraf etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Barcha tadbirkorlik subyektlarining bozorga kirishi uchun teng sharoitlarni ta'minlash, ma'muriy to'siqlarni bartaraf etish, davlatning nazorat funksiyalarini tartibga solish va tadbirkorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish Qashqadaryoda tadbirkorlik faolligini oshirishga qaratilgan davlatning qonunchilik faoliyatining asosiy tarkibiy qismiga aylanishi kerak. Kichik biznesni rivojlantirishning potentsial samarasini amalga oshirish imkonini beruvchi davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishlari:

- Qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirish, tartibga solish, ma'muriy va tashkiliy to'siqlarni bartaraf etish;
- Kichik biznesning moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish;
- Kichik biznes subyektlariga kompleks moliyaviy, moddiy, axborot, konsalting, tashkiliy-uslubiy yordam ko'rsatish infratuzilmasini tizimli rivojlantirish.

Yangi kichik va o'rta korxonalar sonining o'sishi, ishlab chiqarilayotgan kichik korxonalar tomonidan mahsulot ishlab chiqarish, sotish va xizmatlar ko'rsatish hajmining oshishi quyidagi shartlarga bog'liq bo'ladi⁶. Rivojlangan mamlakatlarda bu usullarga e'tibor qaratiladi. Korxona rahbarlari ishlab chiqarish malakasiga tegishli axborotlarni to'plash va uni tahlil etish uchun maxsus xizmat idoralari yoki maxsus odamlarni jalb etadilar yoki

5 file:///C:/Users/user/Downloads/9.%20Kichik%20biznes%20(1)%20(1).p

6 <https://motherhouse.ru/uz/rent-apartments/problemy-razvitiya-malogo-predprinimatelstva-stati-problemy/>



shunday xizmatlar tashkil qiladilar. Bu xizmat faoliyati uchun katta mablag'lar sarflanadi, ammo ular o'zlarining korxona uchun qimmatbaho bo'lgan ixtirolariga qilinadigan sarf-xarajatlarini kamaytirish evaziga tezda o'zini-o'zi oqlaydi. Misol uchun Yaponiya davlati shu kabi usullar bilan axborot to'plash 20 yil davomida eng yuqori sifatga ega bo'lgan ishlab chiqarishni bunyot etdilar. Xorijda, masalan, AQSHda ba'zi bir davlat idoralari o'z mijozlariga ba'zi bir ularni qiziqtirgan korxona va tashkilot to'g'risida turli tijorat axborotlarini yetkazish bo'yicha vositachilik xizmat ko'rsatadi. Korxona uchun tijorat siri hisoblangan ma'lumotlar qiziquvchi shaxslarga, korxonalarga shartnoma (litsenziya) asosida, shu jumladan, tashqi iqtisodiy bitimlar tuzilganda tashkil qilinadi⁷. Mamlakatimiz hududlarida KBXTga investitsion siyosat samaradorligini oshirish qulay investitsiya muhitini ta'minlash va xorijiy kapital oqimini yanada ko'paytirish uchun asosiy yo'nalishlar bo'yicha quyidagi chora-tadbirlarni tatbiq qilish kerak bo'ladi:

- KBXTni rivojlantirish maqsadida chet el investitsiyalarini yanada ko'paytirishda ularning samarali faoliyatini ta'minlovchi huquqiy baza ta'minotini takomillashtirish va o'zaro hamkorlik aloqalarini kuchaytirish lozim;
- mamlakatimizda faoliyati yo'lga qo'yilgan kichik qo'shma korxonlarning erkin faoliyatini ko'rsatishi hamda tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatini yanada kuchaytirish;
- hududlarning barqaror rivojlanishi uchun barcha viloyatlarga teng taqsimlangan holda ichki va tashqi investitsiyalarni kiritish. Shuningdek, hududlarning salohiyati va keng imkoniyati haqidagi ma'lumotlar bilan tanishtirish hamda ular uchun ko'proq manfaatdorlik, moyillik yaratish mexanizmini ishlab chiqish.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. S. S. G'ulomov "Kichik biznes va tadbirkorlik" darslik.
2. "Kichik biznes va tadbirkorlik" M. P. Boltabayev va boshqalar.
3. "Kichik biznes va tadbirkorlik" U. P. Umaurzakov, A. J. Toshboyev.
4. Vales W. J. Empirical research on entrepreneurial orientation: An assessment and suggestions for future research / W. J. Wales, V. K. Gupta, F. T. Mousa // International Small Business Journal. –2013. –№31(4). – P. 357–383.
5. Bayxonov B. T. "O'zbekiston iqtisodiyotida investitsiyalarni tarmoqlararo taqsimlashning ekonometrik modellash tirish uslubi yatini takomillashtirish". Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoferati. Toshkent –2019. –76 b.
6. Abulqosimov H. P., Qulmatov A. A. O'zbekistonda kichik biznes sohasida oilaviy tadbirkorlikning o'rni va uni rivojlantirish yo'llari. Monografiya. –T.: Universitet, 2015. –126
7. G'oyibnazarov B. K., Rahmonov H. O., Otajonov Sh. I., Almatova D. S. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik – mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini yuksaltirish omili. Monografiya. –T.: Fan, 2011. –184 b.
8. <https://kun.uz/uz/news/2019/07/24/prezident-kichik-biznes-rivojiga-tosiq-bolayotgan-muammolarga-toxtaldi>.
9. <http://lib.jizpi.uz/mod/resource/view.php?id=13621&redirect=1>
10. https://uza.uz/oz/posts/tashrifdan-tashrifgacha-qashqadaryo-viloyati-iqtisodiyoti-yuksalmoqda_457213
11. <https://review.uz/uz/post/qashqadaryo-viloyatining-2022-yil-yanvar-iyun-oyidagi-kichik-biznes-va-tadbirkorlik-subyekt-lari-korsatkichlari>.
12. [file:///C:/Users/user/Downloads/9.%20Kichik%20biznes%20\(1\)%20\(1\).pdf](file:///C:/Users/user/Downloads/9.%20Kichik%20biznes%20(1)%20(1).pdf)
13. <https://motherhouse.ru/uz/rent-apartments/problems-razvitiya-malogo-predprinimatelstva-stati-problemy>.

⁷ S. S. G'ULOMOV Tadbirkor va kichik biznes Darslik

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 11-12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.